

BUXORO VILOYATIDA KICHIK BIZNESGA DAVLAT TOMONIDAN BERILGAN IMTIYOZLAR TIZIMINI KENGAYTIRISH

Bozorov Ilyos Isomiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Biznes boshqaruv” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Ilyosbozorov1986@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faol bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rivojlantirish va hududlarda kichik va o'rta biznesga qulay shart sharoitlar yaratib berish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznes faoliyatini davlat imtiyozlari tizimi orqali rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar

Milliy daromad kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, subsidiya innovatsiya tovar aylanmasi investitsiya tovar aylanmasi, makroiqtisodiy barqarorlik, investor, yalpi ichki mahsulot, xususiy sektor, iqtisodiy resurslar, kapital.

Аннотация

В данной статье разработаны научное предложение и практические рекомендации по развитию малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства, действующих в различных отраслях народного хозяйства, а также по созданию благоприятных условий для малого и среднего предпринимательства в регионах. Показаны пути развития малого и среднего бизнеса в Бухарской области через систему государственных льгот.

Ключевые слова: национальный доход, развитие малого и среднего бизнеса, субсидия, инновации, оборот, инвестиционный оборот, макроэкономическая стабильность, инвестор, валовой внутренний продукт, частный сектор, экономические ресурсы, капитал.

Abstract

In this article, a scientific proposal and practical recommendations have been developed for the development of small business and private business entities active in various sectors of the national economy, and for creating favorable conditions for small and medium-sized businesses in the regions. Ways to develop small and medium-sized businesses in Bukhara region through the system of state benefits have been shown.

Key words: national income, small and medium business development, subsidy, innovation, turnover, investment turnover, macroeconomic stability, investor, gross domestic product, private sector, economic resources, capital.

KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati markazida aholi farovonligi va turmush darajasini

oshirish masalalari turadi. Bugungi kunga qadar shakllanib kelgan nazariyalar umumiy holda tadbirkorlikning rivojlanishi aholi farovonligi darajasining oshishiga imkon yaratadi degan g'oyani ilgari suradi. Shunga ko'ra, aksariyat mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, uni har tomonlama qo'llab quvvatlash va rag'batlantirishga e'tibor qaratiladi. Biroq ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va buning natijasida iqtisodiy o'sishning yuksalishi har doim ham yetarli darajada aholi turmush farovonligining oshishiga olib kelmaydi. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda kichik va o'rta biznes faoliyatini davlat tomonidan berilgan imtiyozli kreditlar hisobiga rivojlantirishga yuqori ahamiyat qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes — bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir. Viloyat hududlarida kichik biznesni rivojlantirib hududning iqtisodiy salohiyatini ko'tarish ishsiz aholini ish bilan ta'minlash Buxoro viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda bir qancha xorijiy olimlar o'z ilmiy ishlarida quyidagi xulosaga kelgan:

R. Xizrich va M. Piterlar tadbirkorlik – bu qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratish jarayoni bo'lib, vaqt va ishchi kuchini o'zlashtiradi, o'ziga moliyaviy, ma'naviy-ijtimoiy javobgarlikni qabul qilishga, shaxsiy manfaatni qanoatlantirishga va ma'lum daromad olishga olib keladi deya ta'riflaydilar. Y.Shumpetar fikricha, “iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi”, deya ta'kidlaydi.

B.Yu. Xodiyev, M.S. Qosimova, A.N. Samadov kabi iqtisodchilarning mulohazalariga ko'ra, “Tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi” U.V. Gafurovning ilmiy dissertatsiyasida kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir masalalarga e'tibor qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosi hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish asosida hududning iqtisodiyotini rivojlantirish va beriladigan imtiyozlarini yanadan kengaytirish muammolarini yechish jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Kuzatuv metodi orqali kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va toʻsiqlarni bartaraf etish boʻyicha kompleks dastur va choralar ishlab chiqilgan. Natijada oʻtgan 2023 yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun moʻljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingga koʻpayib, 26 mingtani tashkil etdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingga yetib, jami eksport hajmi 30 % (foizga) koʻpaygan.

2022-yilda 22-avgust kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “ochiq muloqoti” doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan 12 mingdan ortiq murojaatda koʻtarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish hamda “ochiq muloqot”da belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish maqsadida “Yoʻl xaritasi tuzilgan edi” xarita boʻyicha quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga olib kichik biznesga doir rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish yoʻliga qoʻyilgan:

biznes faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratish;

kichik biznes uchun yetarli shart-sharoit, infratuzilma va kafolatli bozor yaratish;


mulk huquqini taʼminlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, mol-mulkni haqiqiy bozor aktiviga aylantirish;

kichik va oʻrta biznes faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortishni erkinlashtirish;

Har bir hududlarga imkon qadar biznesni kengaytirish yangi loyihalarni boshlash aylanma mablagʻlarni koʻpaytirish uchun tadbirkorlarga yetarlicha mablagʻ davlat tomonidan ajratib berilgan. Lekin ayrim tuman va korxona rahbarlari biznes yoʻnalishlariga berilgan pul mablagʻlarini toʻgʻri va manzilli yoʻnaltirilmaydilar.

Axborot xavfsizligi axborot bilan taʼminlashni oʻz ichiga oladi. Buxoro viloyati hududlarining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli har bir hududning sharoitidan kelib chiqib farqlanadi. Qarovulbozor tumanini oladigan boʻlsak, bu tumanda yerlar, masalan, unumdor yerlar yaylov va choʻllardan iborat hamda chorvachilikka asosan moʻljallangan boʻlib ishchi kuchiga talab yuqoridir. Bu hududdagi talabni qondirish uchun esa ayrim tumandagi zich joylashgan aholini shaharda jalb qilib aholiga uy joylar, tadbirkorlik qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish kerak boʻladi. Shofirkon tumanini qaraydigan boʻlsak, bu tumanda ishchi kuchi resurslar va tadbirkorlik qobiliyati ham yetarli darajada boʻlib, tadbirkorlarga shart sharoit yaratib berilgan.

Bugungi kunda zamon rivojlanib borgan sari iqtisodiyot sohalari ham rivojlanib boryapti. Har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun 6 narsa kerak boʻladi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlansa, albatta, hududlarning ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalari rivojlanib boradi (1-rasm).



1-rasm iqtisodiy resurslar¹

Buxoroda bu yil kichik biznesga 5,9 trillion so‘mga qo‘shimcha yana 2,1 trillion va server uchun yana 100 million AQSH dollar alohida ajratilgan. Bular orqali iyun-dekabr oylarida 78 ming aholi bandligini ta‘minlash amalga oshiriladi.

Buxoro viloyatida bugungi kunda orol suvining kamayib borishi hududning iqlimiga katta ta‘sir qilyapti masalan bahor, yoz faslining havo harorati juda-ham issiq bo‘lishi biznes bilan shug‘ullanadiganlarga qiyinchilik tug‘diryapti. Masalan turizm sohasida yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida, savdo sohalarida shu davrda havoning issiq kelishi uchun daromadlar kamayib boradi. Hududning Olot tumani, Qorako‘l tumani va Jondor tumanlarida qishloq xo‘jaligi sohasida issiqxonalar va yerlarning auksionga berilishi tufayli aholi sotib olingan yerlarning aksariyat qismi yetarli shirin suv bilan sug‘orilmaydi. Davlat tomonidan uzoq yillar davomida auksion orqali sotilgan yerlarning solig‘ini kamaytirib borish lozim bo‘ladi. Chunki suv yetishmovchiligi muammosi sabab aholi yetarlicha daromad ololmaydi.

Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes o‘zining iqtisodiyotimizdagi o‘ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta‘siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo‘nalish o‘rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotimiz misolida shuni hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bu sohani rivojlantirmasdan, unga tegishli ko‘mak va rag‘bat bermasdan, zarur imkoniyat, imtiyoz va preferensiyalar yaratmasdan turib biz iqtisodiyotimizning kelajagini ta‘minlay olmaymiz. Iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rolining oshib borishi, jumladan, uning respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2022-yilda 52,8 foizga yetishida mazkur sohaga davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, yengillik va imtiyozlarning ahamiyati kattadir. Shu o‘rinda kichik biznes subyektlariga beriladigan imtiyoz va preferensiyalarning mazmuni, samaradorligi va miqdoriy chegaralarini belgilashning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga turli imtiyozlar berishning obyektiv zarurligini, eng avvalo, quyidagi ikkita sabab bilan izohlash mumkin:

1) davlatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri iqtisodiyotdagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng iqtisodiy sharoit yaratishdan iborat ekanligi;

¹ Muallif ishlanmasi

2) xo‘jalik yuritishning muhim shakli sifatidagi kichik biznesning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarga egaligi. Ma’lumki, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tadbirkorlarni o‘z ichiga oluvchi kichik biznes subyektlarining samarali xo‘jalik yuritish imkoniyatlari yirik korxonalarga nisbatan cheklangan. Yirik korxona o‘zining iqtisodiy va moliyaviy quvvatidan kelib chiqqan holda ko‘plab xo‘jalik yuritish shart-sharoitlarini o‘zi mustaqil ta’minlash hamda bu boradagi mavjud muammolarni hal qila olish imkoniga ega.

Jumladan:

- xo‘jalik yuritish faoliyati hamda ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini samarali tashkil etish va amalga oshirish uchun moddiy texnika bazasi (bino, inshootlar, uzatish moslamalari, asbob-uskunalar va boshqalar)ni ta’minlash;

- xomashyo va materiallar, elektr energiyasi, suv, tabiiy gaz va boshqa resurslar bilan ta’minlash;

- avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, omborlar va boshqa ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlaridan foydalanish;

- moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ichki va tashqi manbalardan foydalanish;

- iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa masalalar bo‘yicha o‘zining alohida maslahat xizmatlarini tashkil etish yoki bu boradagi maxsus tashkilotlar xizmatlaridan foydalanish va h.k. Kichik biznes subyektlarining bu kabi tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa shart-sharoit hamda xizmatlardan foydalanishida ko‘plab to‘siq va muammolar uchraydi.

Birinchidan, ushbu soha vakillari o‘z faoliyatini tashkil etishda aksariyat hollarda moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi muammosiga duch keladilar. Ko‘pincha o‘zlarining xususiy mablag‘lari bo‘lmagani holda boshqa moliyaviy institutlar ularga qarz berishga doimo ham xayrixohlik bildiravermaydilar.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari faoliyatini mustaqil yo‘lga qo‘yish katta mablag‘ talab etadi.

Uchinchidan, kichik biznes subyektlarida ushbu xizmatlardan muntazam ravishda foydalanish uchun ehtiyoj ham mavjud bo‘lmaydi va h.k. Yuqoridagi holatlar kichik biznes subyektlarini yirik korxonalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan teng bo‘lmagan sharoitga solib qo‘yishi oqibatida ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Viloyat, tuman hokimlari va rahbarlari o‘zlarining hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun kecha-yu kunduz xizmat qilib shahar hamda mahallalarni obod qilish aholining yaxshi yashashi uchun shart-sharoitlar yaratib boradilar.

Bugungi kunda har bir rahbarlarning o‘zining hududiga tegishli har bir korxonaning faoliyati nima bilan shug‘ullanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini bilsa, xabardor bo‘lsa, tadbirkorlar, kichik biznes egalari yana yaxshiroq xizmat qilib aholini ish bilan ta’minlab boradilar.

Yangi biznes egalariga beriladigan imtiyozlarni takomillashtirish

Yangi tashkil etilgan mahalliy ishlab chiqaruvchi biznes egalarini davlat boji va NDS soliqlardan ozod qilish	o'z faoliyatini yangi boshlagan biznes egalarini 2 yilga kredit foizlardan ozod qilish	Yangi biznesmenlarga ya'ni ishlab chiqaruvchi eksport qiluvchi korxonalarga davlatga tegishli binolarni 3 yilga tekinga berish, 3 yildan keyin aukcion orqali sotishni amalga oshirish.	Yakka tartibdagi kashfiyotlar uchun davlat bojlarini pasaytirish Yosh biznesmenlarni ya'ni yosh tadbirkorlarni ko'llab quvatlash sohaga doir yangi axborotlar bilan tanishtirib borish. Grantlar va biznes g'oyalar bilan tanishtirib borish, bino, inshootlar asbob uskuna hamda ijaralarni arzon narxda berish
---	--	---	--

2-rasm Kichik va o'rta biznesda beriladigan imtiyozlarni yanada kengaytirish¹

Shu bilan birgalikda har bir viloyatning mahalliy jamg'arma fondlaridan yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarini moddiy rag'batlantirishni amalga oshirishga ahamiyat qaratilishi lozim. Mazkur rag'batlantirish tizimlari yosh biznes egalari kamida 10 ta dan yangi ish o'rinlari tashkil qilganlariga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijasida bizning, fikrimizcha, hududda davlat tomonidan berilgan kichik va o'rta biznesga qulay ishlash uchun sharoit yaratib berish evaziga hududning iqtisodiyoti yanada rivojlangan.

So'nggi yillarda viloyat iqtisodiyoti 1,5 barobar o'sib, 53 trillion so'mdan oshgan, aholi jon boshiga 26 million so'mga yetgan. Sanoat qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishda 4 ming 600 ta korxona tashkil etilib 90 mingta ish o'rni yaratilgan. Eksport 215 million AQSH dollarga yetgan. Qorako'l, Jondor, Shofirkon va Kogon tumanlarining har birida sanoat hajmi yiliga 1 trillion so'mdan oshgan.

O'zbekiston Respublikasi viloyat va tumanlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari har xil bo'lib, Buxoro viloyatini oladigan bo'lsak, viloyatning tumanlar kesimida iqtisodiy ko'rsatkichlari har xil bo'ladi. Masalan, ilmiy ishimiz davomida G'ijduvon tumanida aholi zich joylashganiga qaramasdan biznes egalari hunarmandchilikdan boshlab savdo sohalari, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish korxonalari, hattoki sanoat ishlab chiqarish korxonalari mavjud bo'lib, aholi daromadi yetarli darajada ekanligini ko'rish mumkin.

Shofirkon tumanida ham yetarli darajada biznes egalariga yuqori darajada imkoniyat yaratib berilgan, hattoki qishloq xo'jaligiga ham viloyat boshqarmalari davlat tomonidan subsidiya, dotatsiyalar hamda imtiyozli kreditlar berilib boriladi. Romitan tumanida ham sharoitlar yaxshi bo'lib bu tumanlarda qancha investitsiyalar kiritilsa tumanni reytingi ko'rsatkichi o'sib boradi. Lekin ayrim tumanlarda aholi turmush darajasi savdo aylanmasi kichik biznes va tadbirkorlik qilishga sharoitlar

¹ Muallif ishlanmasi

mavjud emas. Masalan, Qorako‘l tumani, Olot tumani va Qorovul bozor tumanlariga tadbirkorlik qilish uchun imtiyozli kreditlarni ko‘proq yo‘naltirish kerak bo‘ladi. Buxoro viloyatining mahalliy byudjeti tomonidan yig‘ilgan mablag‘larni biznes sohalari va tadbirkorlarga yo‘naltirish kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. www.lex.uz
2. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: 1993, с. 26.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития – М.: 1982. С. 159
4. Ходиев Б.Ю., Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. Т.:ТДИУ.
5. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмлари тақомиллаштириш: иқт. фан. док. дисс. –Т.: 2017. – 309 б.
6. Ичитовкин Б.Н. Малые формы хозяйствования. – М.: «Экономика», 2006. – с. 11.
7. Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. 2. М.: ТеИС, 2000. – с. 31
8. «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни; Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2014 йил 7 апрелдаги ПФ-4609-сонли.